

---

“Men shaxsan o‘zim ovoz beraman” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi

Saylovchilarning saylov jarayonida faolligini oshirish, siyosiy bilim darajasini yuksaltirishga qaratilgan targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada faollashtirish maqsadida, 2019 yilning 20 oktyabridan 20 noyabrigacha o‘tkazilayotgan Saylov qonunchiligi targ‘iboti oyligi tadbirlarida aholining keng qatlamlari, jumladan, xotin-qizlar, yoshlar, ayniqsa, saylovlarda birinchi marta ovoz beradigan fuqarolar, nuroniylar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar - mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millatlar vakillari faol ishtirok etmoqda.

Qo‘shitepa tumanidagi 2-iqtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktab-internati faollar zalida “Men shaxsan o‘zim ovoz beraman!” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Saylov qonunchiligi targ‘iboti oyligi doirasida tashkil etilgan tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazuvchi 109-Qo‘shitepa saylov okrugi komissiyasi, viloyat va tuman saylov komissiyasi a‘zolari, tuman adliya va oila markazi xodimlari hamda faol xotin-qizlar ishtirok etdi.



Tadbir davomida ma'ruzachilar saylov jarayonida ochiqlik va oshkoralik prinsiplarini mustahkamlash maqsadida saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar, shuningdek, jamiyatni yanada yangilash va demokratlashtirish fuqarolar saylov huquqi amalga oshirilishi bilan uzviy bog'liqligi, ayniqsa bu borada yoshlarning saylov kompaniyasida faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar.







Ochiq muloqot shaklida o'tgan uchrashuvda viloyat saylov komissiyasining mutaxassislari tomonidan saylovchilarni qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob berildi.

2019-11-04 10:44:51